TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi	562
<i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli	566
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	



JAMIYATDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TASHKIL QILISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINING O'RNI

Dehqonova Mahmuda Ortiqovna

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi
"Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport milliy genofondni shakllantirish, sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etish hamda yosh avlodni sog'lom tarbiyalashda muhim ma'naviy, mafkuraviy va amaliy vosita hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport orqali sog'lom insonni shakllantirish butun jamiyatning ustuvor vazifasi bo'lishi lozim. Har bir inson, oila va ota-onaning jismoniy tarbiya hamda sport bilan muntazam shug'ullanishni odat darajasiga ko'tarishi, uni qadriyat sifatida e'zozlashi jamiyatda sog'lom turmush tarzining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur maqola sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining pedagogik faoliyati masalalarini yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, sport, o'qituvchi, o'qituvchi-trener, amaliy mashg'ulotlar, mardlik, chaqqonlik, pedagogika, psixologiya.

Abstract: Physical education and sports are widely used as moral, ideological, and practical tools in the formation of the national gene pool, the proper organization of a healthy lifestyle, and the development of a healthy younger generation. Encouraging individuals, families, and parents to make physical activity and sports a regular habit and to recognize them as social values contributes to the sustainable promotion of a healthy lifestyle in society. This article is devoted to the analysis of the educational activities of physical education and sports professionals in the organization of a healthy lifestyle.

Key words: physical education, healthy lifestyle, sport, teacher, teacher-coach, practical exercises, courage, endurance, pedagogy, psychology.

Аннотация: Физическая культура и спорт широко используются как моральный, идеологический и практический инструмент в формировании национального генофонда, правильной организации здорового образа жизни и воспитании здорового молодого поколения. Формирование привычки к регулярным занятиям физической культурой и спортом в семье и обществе, а также их признание в качестве ценности, способствует устойчивому развитию здорового образа жизни в обществе. Статья посвящена анализу педагогической деятельности специалистов в области физической культуры и спорта в процессе организации здорового образа жизни.

Ключевые слова: физическая культура, здоровый образ жизни, спорт, учитель, педагог-тренер, практические занятия, смелость, выносливость, педагогика, психология.

KIRISH

Inson faoliyatida jismoniy tarbiyaning amaliy natijasi kishining jismoniy tayyorgarligi, harakat bilim va ko'nikmalarining barkamollik darajasi, yuksak hayotiy kuchga egaligi, sport sohasida erishgan yutuqlari hamda aqliy rivojlanganligi bilan belgilanadi. Milliy genofondning shakllanishi, sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etish va yosh avlodni sog'lom tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport ma'naviy hamda mafkuraviy vosita sifatida qo'llaniladi.

Bugungi kunda demokratik jamiyatni ajdodlar merosi, milliy qadriyatlar asosida, o'z turmush tarzimiz talablaridan kelib chiqqan holda barpo etishga intilmoqdamiz. Ana shu jarayonlar negizida sog'lom inson omili muhim o'rin egallaydi. Jismoniy tarbiya va sport orqali sog'lom insonni shakllantirish butun jamiyatning ustuvor vazifasi bo'lishi lozim.

Har bir inson, oila va ota-onaning jismoniy tarbiya hamda sport bilan shug'ullanishni odat darajasiga ko'tarishi, uni qadriyat sifatida e'zozlashi jamiyatda jismoniy tarbiya va sport bilan uzluksiz shug'ullanish jarayonini ta'minlaydi. Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat faoliyati hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi^[1].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlarning sog'lom bo'lib voyaga yetishini ta'minlash masalasi milliy pedagogikamiz, xalq og'zaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh g'oyalaridan biri bo'lib kelgan. Abu Ali ibn Sino insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlarni sanab o'tar ekan, quyidagilarga alohida urg'u beradi ^[2]:

1. **Jasurlik** – biror ishni bajarishda kishining jasorati, chidamliligi, inson boshiga tushgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga xizmat qiluvchi quvvat.
2. **Aqlilik** – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat.
3. **Ziyraklik** – sezgi orqali idrok etilgan hodisalarning haqiqiy mazmunini tez anglashga yordam beruvchi quvvat.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yuksak axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badan tarbiyasi bilan shug'ullanish zarur: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozim. Sog'lom badanga ega bo'lmagan insonlar o'z amallari va ishlarida kamchilikka yo'l qo'yurlar. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila ruh ikki tomonli bir butunlik bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Agar jism poklik bilan ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, fikr tarbiyasi ham yetarli darajada bo'lmaydi. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog'lom vujud zarurdir".

Buyuk pedagog Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bu borada quyidagilarni ta'kidlagan: "Nazofat (gigiyena) deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni va asboblarimizni pok va toza tutmoq tushuniladi. Poklik zehn va idrokni keng hamda o'tkir qiladi, xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'ladi. Poklik orqali turli kasalliklardan saqlanib, salomatlikni asrash mumkin. Pok bo'lish salomatlik va saodat uchun eng zarur omildir. Yirtilgan yoki eski kiyim kiyish ayb emas, biroq yangi kiyimlarni kir qilib yurish katta ayb va nuqson hisoblanadi" ^[2].

O'quvchilarda mustahkam iroda, qat'iy xarakter va intizomga so'zsiz amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish jismoniy tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni gigiyena qoidalari bilan tanishtirish hamda ularga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya bolalarga faqat oila yoki ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlar jarayonidagina emas, balki sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar, turli musobaqalar hamda ommaviy tadbirlar davomida ham samarali tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. "Sog'lom tanda sog' aql" degan xalq maqolida jismoniy tarbiyaning mazmun-mohiyati lo'nda va aniq ifodalangan. Jismoniy tarbiyani bugungi kun talablari asosida yuqori darajaga ko'tarish o'quvchilar orasida salbiy holatlarning keng tarqalishining oldini oladi ^[3].

Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish hamda mamlakatimizda ushbu sohada yaratilgan shart-sharoitlardan samarali foydalanish zarurati mavjud. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash masalalarining dolzarbligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari faoliyatini pedagogik jihatdan boshqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli ta'lim muassasalarida, jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari, "Barkamol avlod" bolalar va o'smirlar sport maktablari hamda nodavlat sport ta'lim muassasalarida o'qituvchi-trenerlar va sport mutaxassislari faoliyat olib boradilar ^[5]. Turli ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar ta'lim muassasasining funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyatini tashkil etadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning o'rni empirik va nazariy ma'lumotlar asosida o'rganildi. Tadqiqot ma'lumotlari ilmiy adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogik tajriba materiallari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning amaliy faoliyatiga oid kuzatuvlar orqali to'plandi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalari va sport maktablarida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayoni o'rganildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish usullari yordamida tahlil qilinib, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi pedagogik faoliyati samaradorligi baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Biz quyida shaxsiy tajribamizdan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda Barkamol avlod bolalar sport maktablari o'qituvchi-trenerlarining pedagogik boshqaruvdagi o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etdik. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining ish sohasi odatda sinf xonasiga qaraganda ancha keng bo'lib, mashg'ulotlar sharoiti vaqt-vaqti bilan o'zgarib turadi ^[6].

Mazkur sharoitlar sport maydonchasi, gimnastika zali, basseyn yoki ochiq maydon bo'lishi mumkin. Mashg'ulotlarda ko'p sonli hamda ko'pincha noto'g'ri foydalanilganda xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan inventar va murakkab jihozlardan foydalaniladi. Shuningdek, o'quvchilarning yuqori harakat faolligi jarohatlar yuzaga kelishi hamda murakkab munosabatlar shakllanishi ehtimolini inkor etmaydi. Bir o'quv kuni davomida turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash, shuningdek, muayyan sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasini hisobga olish zarurati (dastur sinfdagi barcha o'quvchilar uchun bir xil yakuniy talablarni belgilaydi) mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida alohida qiyinchiliklar tug'diradi.

Odatda, jismoniy tarbiya o'qituvchisi maktabda ko'plab ommaviy tadbirlarni tashkil etadi. 200–300 kishini qamrab oluvchi yirik jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida sport tashkilotchilari, jamoatchi hakamlar, trenerlar, sport jamoasi a'zolari va boshqa jismoniy tarbiya hamda sport faollari ishtirok etadi. O'qituvchi ushbu ko'p sonli faollarning faoliyatini muvofiqlashtiradi va boshqaradi ^[7].

Shuningdek, u o'qituvchilar jamoasi, sinf rahbarlari hamda pedagog-tarbiyachilarga tarbiyaviy vazifalarni hal etishda yordam beradi, ularni ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlariga (sport marafonlari, bayramlar, sayrlar, umumta'lim muassasasi miqyosidagi musobaqalar, sport kechalari va boshqalarga) rahbarlik qilishga jalb etadi. Ushbu xilma-xil faoliyatning muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, u bir qator fazilatlar, malaka va kasbiy qobiliyatlarni talab etadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quv mashg'ulotlari jarayonini samarali tashkil etish uchun jismoniy tarbiya fanining nazariy asoslarini chuqur bilishi zarur ^[8].

O'qituvchi o'z fanini mukammal bilish bilan birga, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, gigiyena, tibbiyot hamda inson fiziologiyasiga oid fanlar bo'yicha tizimli bilimlarga ega bo'lishi lozim.

1. Maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi quyidagilarni bilishi kerak:

- milliy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiyaning umumiy va aniq maqsadlarini belgilash;
- jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining maqsadi hamda vazifalarini aniqlash;
- jismoniy ta'lim-tarbiyada zamonaviy metodlarni tanlash va qo'llash;
- jismoniy tarbiya va sportning turli vositalaridan samarali foydalanish;
- sport bilan shug'ullanuvchilarning yosh-jins, morfofunktsional, individual-psixologik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarning turli shakllarini tanlash, sportning milliy turlari va madaniy an'analaridan foydalanish;
- ta'lim oluvchilarda shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, organizmni mustahkamlash va uning holatini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- shifokor nazorati va pedagogik nazorat metodlari, mashg'ulotlarda xavfsizlikni ta'minlash usullari hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalariga ega bo'lish;
- o'quvchilarda mashg'ulotlarga tayyorlanish va ularni o'tkazishda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- har kuni turli shakldagi jismoniy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishga qodir bo'lgan faol sportchilarni tayyorlash;
- ilg'or pedagogik tajribani tahlil qilish, umumlashtirish va ijodiy qo'llash, kasbiy hamda psixologik-pedagogik tayyorgarlik darajasini muntazam oshirib borish;
- yuqori darajadagi uyushqoqlik va tashabbuskorlikni namoyon etish hamda o'z faoliyati mazmunini uzluksiz takomillashtirib borish.

Sport turi bo'yicha o'qituvchi-trener faoliyati jismoniy tarbiya o'qituvchisining ish faoliyatidan sezilarli darajada farq qiladi. Trenerning faoliyati, avvalo, o'quvchi va yoshlarning sport qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, ularning sportdagi hayot yo'lini oldindan belgilashga qaratilgan bo'ladi. Shaxsning jismoniy va ruhiy jihatdan uyg'un kamol topishi uning sport faoliyatidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Sport turi bo'yicha o'qituvchi-trener uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimi va ularning mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega ^[9].



Trener sportchilarni tayyorlashning milliy tizimi tamoyillari, vositalari va metodlari, sportchilar tayyorlashga qo'yiladigan asosiy xalqaro talablar, tanlangan sport turida ta'lim va trening (mashg'ulot) nazariyasi hamda metodikasi, jismoniy mashqlarni o'rgatish metodikasi, o'quv-trening jarayonini tashkil etishning psixologik-pedagogik qonuniyatlari, sportchilar tayyorlashda turli didaktik vositalardan foydalanish imkoniyatlari, sport bilan shug'ullanuvchilarning yosh-jins xususiyatlari hamda jismoniy sifatlar va harakat malakalarini rivojlantirish qonuniyatlarini mukammal bilishi zarur.

2. Bu borada o'qituvchi-trener quyidagilarni bilishi lozim:

- sport tayyorgarligining umumiy va aniq maqsadlarini belgilash;
- mashg'ulot jarayonida shug'ullanuvchilarning yosh-jins, morfofunktsional va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib zamonaviy metodlarni qo'llash;
- sportchilar faoliyati natijalariga ko'ra o'z ishiga zarur tuzatishlar kiritish;
- zamonaviy o'lchov vositalari va xavfsizlikni ta'minlovchi usullardan foydalangan holda sport-pedagogik nazoratni amalga oshirish;
- musobaqalarni tashkil etish va ularda hakam yoki guruh vakili sifatida ishtirok etish;
- shug'ullanuvchilarda mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish hamda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish;
- shug'ullanuvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish hamda sport faollarini tayyorlash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridan farqli ravishda, bolalar va o'smirlar sport maktabi (BO'SM) trenerining ish sharoiti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlarga mashg'ulotlarni tanlash va ularda ishtirok etishning ixtiyoriyligi, sport yig'inlari va musobaqalar jarayonida yuzaga keladigan alohida muloqot sharoitlari, shuningdek, jismoniy imkoniyatlar va texnik barkamollik darajasini doimiy saqlab turish zarurati kiradi [10].

Trenerning jismoniy imkoniyatlari deganda uning salomatlik holati va shug'ullanuvchilar bilan birgalikda mashqlarni bajarish qobiliyati tushuniladi. Texnik barkamollik esa mashqlarni texnik jihatdan to'g'ri bajarish malakasi bilan belgilanadi. Sport murabbiyining tarbiyaviy faoliyati uzluksiz jarayon bo'lib, u mashg'ulotlar bilan cheklanmaydi. Trener sportchilar hayot tarzi, hayotiy tanlovlari va dunyoqarashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar sport jamoasi o'zining murakkab boshqaruv tizimi va psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bois, mashg'ulotlarga barqaror qiziqishni shakllantirish trener faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sport faoliyatini endigina boshlagan shug'ullanuvchilar bilan ishlashda mashg'ulotlarning bir xilligi ularning qiziqishini tez so'ndirishi mumkinligini hisobga olish zarur.

Yuqori malakali sportchilar bilan ishlovchi trenerlar pedagogik faoliyatining muvaffaqiyatli ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- guruh va individual sportchilar tomonidan yuqori natijalarga erishilishi;
- jamoa a'zolarining ijtimoiy-axloqiy va sport etikasi me'yorlariga rioya qilishi;
- sportchilar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga zarar yetkazmagan holda sportda yuqori natijalarga erishish uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda jismoniy tarbiya va sport maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-trenerlar va sport bo'yicha mutaxassislarning ish faoliyatini samarali boshqarish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish faoliyati bo'yicha aniq maqsadlarni belgilash hamda ularni amalga oshirishda zamonaviy metodlarni tanlash va qo'llash;
- jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishda xilma-xil jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish, o'quv-amaliy mashg'ulotlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida izchil tashkil etish, mashg'ulotlar jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol tatbiq etish;
- o'quvchi-yoshlar va ko'ngilli shug'ullanuvchilarning yosh-jins, morfofunktsional, individual-psixologik xususiyatlari, ularning jismoniy tayyorgarligi va salomatligi, shuningdek, jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini alohida inobatga olish;
- shifokor nazorati va pedagogik nazorat metodlarini, mashg'ulotlarda xavfsizlikni ta'minlovchi usullarni hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini bilish;



- mashqlarga tayyorlash jarayonida o'quvchilarning ongi va qalbiga ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni singdirish zarur. Chunki har bir xalq o'yini o'zida xalqimizning yuksak madaniyati va qadriyatlarini aks ettiradi. O'yinlarni tushuntirish jarayonida milliy madaniyat va ma'naviyat qirralarini tahlil qilib, ularning mohiyatini o'quvchilarga yetkazish;
- o'yinlar orqali ko'zda tutilgan umuminsoniy fazilatlar – mardlik, jasurlik, epchillik, murosallilik, adolatparvarlik va xalqparvarlik kabi xislatlarni shakllantirish;
- o'yin jarayonida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirish, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda aniq choralar ko'rishga o'rgatish;
- jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislar ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil qilish, ulardan ijodiy foydalanish, pedagogik-psixologik bilimlar hamda kasbiy tayyorlik darajasini muntazam oshirib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: "O'qituvchi", 2008.
2. Belarusova V.V. va boshqalar. Pedagogika. – T.: "O'qituvchi", 1990.
3. To'xtaxo'jayeva M.X., Nishonova S., Hasanboyev J., Sayidahmedov N., Madiyarova S., Usmonboyeva M., Nishonova N., Qoldibekova A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. I qism. Pedagogika nazariyasi. – T.: "O'qituvchi", 2006.
4. Hoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: "O'qituvchi", 2010.
5. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.
6. Zayniddinov T.B., Achilov T. "Jismoniy tarbiya o'qitish metodikasi" o'quv fan dasturi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.
7. Filaire E., Sagnol M., Ferrand C., Maso F., Lac G. (2001). Psychophysiological stress in judo athletes during competitions. *Journal of Sports Medicine and Physical Fitness*, 41(2), pp. 263–268.
8. Mirzaei B., Curby D.G., Rahmani-Nia F., Moghadasi M. (2009). Physiological profile of elite Iranian junior freestyle wrestlers. *The Journal of Strength & Conditioning Research*, vol. 23, no. 8, pp. 2339–2344.
9. Graczyk M., Hucinski T., Norkowski H., Pęczak-Graczyk A., Rozanowska A. (2010). The level of aggression syndrome and a type of practised combat sport. *Journal of Combat Sports and Martial Arts*, vol. 1(2), pp. 1–14.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.